

CHET TILLARINI O'RGANISHDA TEXNOLOGIYANING O'RNI

Ilmiy rahbar: Ibadova Nafisa Ahmatilloevna

Talaba: Abdurashidova Durdona Rustamovna

Samarqand Davlat chet tillar instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8008769>

Annotatsiya: Til – ijtimoiy hodisa, kishilar, jamoalar o'rtasidagi eng muhim aloqa vositasi. Bugungi kunda chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab ortib bormoqda. Prezidentimiz chet tillarini o'rganishga ko'plab sharoitlar yaratib bermoqda. Hozirgi kunda deyarli barcha ta'lim muassasalarida ingliz tili fani keng o'rgatilmog'da. Ushbu chet tillarini o'rganish jarayonida texnologiyalardan foydalanish samarali natijalar bermoqda.

Kalit so'zlar: chet tili, zamonaviy yondashuv, multimedia, pedagogik texnologiya, metodika. Bugungi kunda chet tillarini o'rganish zamon talabiga aylangan. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so'ng chet tillarini o'rganishga bo'lgan talab oshgandan oshib kamaymayapti. O'zbekistonda internet yuqori darajada rivojlangan-ki, u orqali til o'rganuvchi o'zi uchun zarur bo'lgan hamma qulayliklardan foydalanishi mumkin. Hozirda barcha maktab, kollej, litsey, oliy ta'limlarda zamonaviy kompyuterlar mavjud, ular orqali istalgan foydalanuvchida internetga kirish imkoniyati bor. Chet tillarini o'rganishda zamonaviy texnologiyalarni qo'llashdan asosiy maqsad tilni qiyinchiliksiz o'rganishga ko'maklashish hisoblanadi. Zamonaviy yondashuvlarning eng keng tarqalgan usuli asosan darsda multimedialardan foydalanishdir. Multimediali vositalarning foydali tomoni biror bir chet tilini o'rganishda jonli o'yin, rasmlarni ko'rib, tovushlarni tinglab, jonli o'yinlarning faolligini kuzatib o'rganish mumkin.

Internet-resurslardan foydalangan holda chet tillarini o'rgatishning asosiy talablaridan biri bu darsda o'zaro ta'sirni yaratishdir, bu odatda metodikada interaktivlik deb nomlanadi. Interaktivlik bu "nutq vositalari yordamida kommunikativ maqsad va natijadagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, muvofiqlashtirish va to'ldirish". Haqiqiy tilni o'rgatish orqali Internet nutq qobiliyatlari va ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, shuningdek lug'at va grammatikani o'rgatishda samimiy qiziqish va shuning uchun samaradorlikni ta'minlaydi. Interaktivlik nafaqat hayotdan real vaziyatlarni yaratibgina qolmay, balki talabalarni chet tilida ularga munosib javob berishga majbur qiladi.

Chet tillarini o'rganish uchun hozirgi kunda ko'plab shart-sharoitlar yaratilgan. Ayniqsa internet orqali turli yo'llar bilan o'rganish mumkin. Ushbu chet tillarini o'rganishga internetdagi turli saytlar yaqindan yordam beradi. Masalan, ingliz tilini o'rganishda foydali bo'lgan saytlar:

List-english.ru — ingliz tilini o'rganish uchun turfa xil materiallar: onlayn lug'atlar, maktablar, forumlar, tarjimonlar, repetitorlar, testlar, maktab darsliklari, video kurslari, o'yinlar, Android dasturlari, iPhone, YouTube kanallari, podkastlar va boshqalar. Hammasi bepul.

Englishtips.org — yuklab olish uchun darsliklar va kitoblar mavjud. Qidiruv tizimi yaxshi ishlaydi. Til o'rganishga oid ko'plab narsalarni topishingiz mumkin.

Britishcouncil.org — Britaniya Kengashining sayti. Sinovlar, grammatika, o'yinlar va boshqalar. Har bir narsa ingliz tilida, shuning uchun tilni yangi o'rganayotganlar uchun biroz navigatsiya qilish qiyin bo'ladi, lekin shu orqali bilimlar mustahkamlanadi.

Real-english.com — darslar, maqolalar va videolar bilan boyitilgan sayt.

Eslpod.com — uning asosiy vazifasi ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'rgatishdir.

Ello.org — bu oʻrta darajadagi oʻqituvchilar va talabalar uchun “bomba”dir.

Ingliz tiliga oʻqitishda yangi gʻoyalar, texnologiyalardan foydalanilgandagina rivojlanishga, taraqqiyotga erishish mumkin boʻladi. Mashgʻulotlar jarayonida ularga amal qilinsa, yaxshi samara berishi shubhasizdir. Qoʻshimcha matn oʻqitish texnologiyasidan foydalanishdan maqsad, taʼlim olishda eng umumiy gʻoyalar bilan oʻquvchilarni tanishtirishdan iboratdir. Bu texnologiya shaxsga yoʻnaltirilgan yondashuvni aks ettiradi, har bir oʻquvchining bilim, malaka va koʻnikmalarni egallashlarigina emas, balki uning rivojlanish individual xususiyatlarini hisobga olgandagina unumli, ijobiy natijalarga erishish mumkindir.

Bolalar televizor orqali multfilm koʻrishni yaxshi koʻradilar. Biz bundan foydalanib ular koʻp koʻradigan multfilmni olib, uni boshqa chet tiliga masalan ingliz tiliga tarjima qilib, ularga qoʻyib bersak, bolalarga soʻzlarni yodlash va eslab qolish osonlashar edi. Avvaliga ular oʻzlari haqida gapirishadi, keyin boshqalar haqida va hayotidagi turli voqealar haqida gapirishar edi. Bundan tashqari, bolalarga YouTube orqali turli multiklar, qisqa roliklar qoʻyib berish orqali ham chet tilini oʻrgatish imkoni bor.

Chet tili oʻrganishga boʻlgan talab ham kundan kunga oshib bormoqda. Chet tili fani toʻrt aspektga yaʼni oʻqish, yozish, tinglab tushunish va gapirish boʻlinib, ularning har biri boʻyicha alohida tushuncha va koʻnikmalar berilmoqda. Taʼlim texnologiyalari, bu taʼlim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanishdir. Shuningdek, taʼlim jarayoniga zamonaviy innovatsion texnologiyalarini olib kirish orqali taʼlim sifati va samaradorligini oshirishni nazarda tutadi. Xususan, chet tilini oʻrganishda bunday axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanishning bir qancha afzalliklari mavjuddir. Til oʻrganish va oʻqitishda zamonaviy texnologiyaning roli beqiyosdir. Texnologik vositalardan foydalanish chet tili oʻrganishning har bir aspekt, oʻqish, yozish, tinglab tushunish va gapirishida qoʻl keladi. Masalan, tinglab tushunish uchun, albatta kompyuter, player, CD diskarsiz bu jarayonni amalga oshirish mumkin emas. Tinglab tushunish til oʻrganishning eng muhim qismlaridan biridir. Bunda oʻquvchi bir paytning oʻzida soʻzlovchining talaffuzi, grammatik qoidalarga rioya qilganligi, soʻz boyligi va uning maʼnolariga eʼtibor berishi talab qilinadi. Taʼlim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishda oʻquvchilar ham axborot — kommunikatsion texnologiyalarni yaxshi bilish va ulardan foydalana olishi muhim omil hisoblanadi. Chet tilini zamonaviy texnologiyalardan foydalanib oʻrgatish va oʻrganish eng samador usullardan biridir.

Maktab, listey va kollej chet til kursi ularda oʻqitiladigan boshqa oʻquv predmetlaridan mohiyati bilan tubdan farq qiladi. “Chet til” tushunchasi quyidagicha sharxlanishi mumkin: „chet til oʻrganish“ metodik termini ushbu tilda gapirish, tinglab tushunish, oʻqish va yozuv koʻnikma va malakalarini egallash maʼnosini ifodalaydi.

Soʻnggi yillarda axborot kommunikatsiya texnologiyalari vositasida insonlarning oʻzaro shaxsiy va professional muloqotlari faollashayotgani kuzatilmoqda. Uzoq vaqt mobaynida yozuv faqat chet tilini oʻqitish vositasi sifatidagina ahamiyat kasb etib kelgan edi. Lekin hozirgi davrda rasmiy va shaxsiy yozishmalarning turli shakllaridan samarali foydalanish ehtiyoji yaqqol koʻzga tashlanmoqda. Shu boisdan turk tilidan tahsil olayotgan talabalarning yozma nutqini shakllantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik texnologiya - bu tizimli yaratish usuli, FLT jarayonini qoʻllash va aniqlash va olish texnik va inson resurslari yordamida bilim va ularning taʼlim shakllarini optimallashtirish

maqsadlari uchun o'zaro hamkorlik. Texnologiya operatsiyalar darajasida ham namoyon bo'lishi mumkin ta'lim va ta'lim jarayonidagi harakatlar.

Xulosa:

Xulosa qilib aytganda, til jamiyat boyligidir u jamiyat a'zolarining o'zaro aloqasini amalga oshiradi, u borliqdagi barcha voqea-hodisalar haqidagi bilimlarni jamlaydi. Chet tillarini o'rganish davomida innovatsion texnologiyalardan foydalanish natijasida o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi va darslarni o'zlashtirishi osonlashadi. Texnologiya rivojlangan davrda ushbu qulayliklardan foydalangan holda chet tillarini hamma uchun tushunarli tarzda mukammal o'rganish va o'rgatish lozim.

References:

1. Jalolov J.J Chet til o'qitish metodikasi.- T.: O'qituvchi, 2012
2. Shabanov D Chet tilini o'qitish metodikasi va zamonaviy texnologiyalari. Toshkent, 2009
3. Bekmuratova U.B. "Ingliz tilini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish" Toshkent, 2012
4. <http://www.e-library.tsuos.uz>
5. <http://www.infocom.uz>
6. <http://www.fledu.uz>